



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT
INSTITUTI**

**Musiqashunos olim, san’atshunoslik fanlari doktori,
professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga
bag‘ishlangan**

**“O‘ZBEK MUSIQIY MEROSINING TA’LIM
TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI”**

Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

2023-yil 28-noyabr

TOSHKENT-2023

UDK 04
KBK 93
O' 25

“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati” mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami [Matn]: materiallar to‘plami. – T.: O‘zDSMI, 2023. – 234 bet.

Mas’ul muharrir:

Xudoyev G‘anijon – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi professori v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Tahrir kengashi a‘zolari:

Turg‘unova Nasiba – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi» kafedrasi dotsenti, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Yakubov Zohidjon – *O‘zRFA San’atshunoslik instituti bosh mutaxassisi, musiqashunos*

Xudoyqulova Nilufar – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Mazkur to‘plamdan joy olgan ilmiy maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2023-yil uchun mo‘ljallangan xalqaro va respublika tadbirlari rejasi”ga muvofiq, 2023-yil 28-noyabr kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturi asosida san’atshunoslik fanlar doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan **“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati”** nomli Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasidagi materiallar asosida tayyorlandi.

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ul.

“Manas” QFY Madaniyat saroyi qoshida 2018 yilda tashkil etilgan “Marjon” guruhi O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligining “Xavaskorlik halq ansambli” nomli diplomini olishga sazovor bo‘lgan.

Farg‘ona viloyati qirg‘iz milliy madaniy markazining «Suluv qiz» ansambli badiiy rahbari, Farg‘ona tumanidagi 25-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi Xalibaeva Nortoji Toshtonovna 2017 yil O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev Respublika Baynalmilal madaniyat markazining 25-yilligi munosabati bilan mamlakatimizda faoliyat yurituvchi Milliy madaniy markazlarning bir guruh faollarini mukofotlash to‘g‘risidagi farmoniga muvofiq “Shuxrat” medali bilan taqdirlangan. Bu o‘z navbatida mamlakatimiz tomonidan millatlararo bag‘rikenglik muhitida nafaqat o‘zbek va qirg‘iz madaniyatining o‘zaro uyg‘unlikda rivojlanishiga shart-sharoti yaratish, balki bu boradagi harakatlarni rag‘batlantirib borilayotganini yaqqol misolidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev U., Valixonova G. Farg‘ona vodiysi aholisi: etnik tarkibni shakllanishi va etnomadaniy munosabatlar tarixi.-Toshkent, 2016 –B. 7.

2. [Жар-жар // Обычаи и традиции казахского народа](#). Дата обращения: 4 мая 2018. Архивировано из [оригинала](#) 2 мая 2018 года.

3. [Элементы театральности в музыкальном фольклоре // Театр традиционного искусства «Алатау»](#)

4. Dala tadqiqotlari. Malika Sultanova 57 yosh, Namangan viloyati Chortoq tumani Soz soy qishlog‘i.

MUQIMIY VA O‘ZBEK MUMTOZ MUSIQASI

Nazokat KARIMOVA,

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi

“O‘zbek musiqasi tarixi” kafedrasida katta o‘qituvchisi.

XX asr o‘zbek musiqa san‘atida Muqimiy so‘zlariga mumtoz ashula, katta ashula, maqom yo‘llari hamda o‘zbek bastakorlarining badiiy barkamol asarlari ko‘plab yozildi.

Fikrimizning dalili sifatida Imomjon Ikromov (1891 – 1980), Jo‘raxon Sultonov (1893-1965), To‘xtasin Jalilov (1896-1966), Yunus Rajabiy (1897–1976), Muxtorjon Murtazoyev (1909–1994), Muhammadjon Mirzayev (1913–1999), Faxriddin Sodiqov (1914-1977), Komiljon Jabborov (1914–1975), Saidjon Kalonov (1914–1972), Dadaali Soatqulov (1917-1985), Fattohxon Mamadaliyev (1923-1999), Orifxon Hotamov (1925-2002), Eson Lutfullayev (1935-2000) nomlarini keltirishning o‘zi yetarli.

Atoqli shoir merosini o‘rganib, uni keng ommaga yetkazishda xizmatlari tahsinga sazovor bo‘lgan adabiyotshunos olim G‘ulom Karimov⁴⁷ning e’tirof

⁴⁷ G‘ulom Karimov. O‘zbek demokratik shoiri Muqimiy va uning davri adabiyoti. Filol. fan. d-ri ... diss. Toshkent 1962 yil; Muqimiy hayoti va ijodi. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. Toshkent, 1970 yil; Muqimiy. Asarlar. Nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi muallifi G‘.Karimov. Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1974 yil.

etishicha: “Muqimiy she’r ustida ishlaganda, ayniqsa, uning jarangdorligini, musiqaviyligini ta’min etadigan vazn, qofiya, radif masalalariga katta etibor berdi. U, aruzning boy, rang-barang bahrlaridan mukammal xabardor edi”⁴⁸. Yana bunga asosiy omillardan biri, murabba’ janrining tuzilish shakli xalq qo’shiq va ashulalariga yaqin bo‘lganligi deb fikrlashimizga ham asos yetarli bo‘ladi. Sababi, Muqimiy she’riyatida bandlarning to‘rtliklardan iborat bo‘lishi, qofiya tizimi, vazn o‘lchovlarini har tomonlama mos tushishi kuzatiladi. Balki shu uchun uning ijodiy merosiga mansub bo‘lgan she’rlar hayotlilik paytidanoq xonandalar orasida keng yoyilgan, ashula qilib kuylangan.


O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, benazir sozanda va atoqli bastakor Faxriddin Sodiqov bastalagan kuy, qo’shiq va ashulalarning har biri o‘z janriga xos tarzda ijodkorona tatbiq etilgan. Ularning ichida 1935 yili bastalangan “Ey chehrasi tobonim” alohida tahsinga sazovor. Mazkur asar o‘z zamonida – Matyoqub Rahimov, Marhabo Rahmatullayeva, Fotima Boruxova, Sherali Po‘latov, Mahmudjon G‘ofurov, Abdug‘ofur Abdurahmonov, Shahnoza Ismoilova tomonidan magnit tasmalariga muhrlangan. Biroq, Kommuna Ismoilovning benazir ijrosidagi “Ey chehrasi tobonim” shu kunga qadar tinglovchilar orasida keng tanilgani bejiz emas, albatta. Jami yetti baytdan iborat murabba’ning faqatgina beshtasi bastakorga musiqiy bayon uchun qo‘l keladi.

*Ey, chehrasi tobonim,
Oshiqdari hayronim,
Yo‘q toqati hijronim,
Vasl ila davo aylang.*

*Ey, zulfi parishonim,
Ahdi hama yolg‘onim,
Sindi, qani paymonim,
Bir mehry vafo aylang.*



Musiqqa muallifi yuqorida berilgan adabiy mazmunning musiqiy talqiniga erishish uchun vazmin sur’atni tanladi. Ashulaning usuli ham vazmin holatdagi ufarni tasdiqlaydi:



She’r o‘lchovi bo‘g‘inlari jihatidan ritm ruknlariga mos kelib, hazaji murabba’i axrabi solim deb nomlangan o‘lchovga mos keladi:

Maf-u-lu/ma-fo-i-lun
- - v / v - - -
Ey cheh - ra - si to - bo - nim
O- shiq - la - ri hay - ro - nim

⁴⁸ Muqimiy. Asarlar. Nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi muallifi G‘.Karimov. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, Toshkent, 1974 yil, 20-bet.

“Ey chehrasi tobonim” ashula ijrosi deyarli to‘rt yarim daqiqa (4:27) vaqt davom etadi. Asar “re” tovushi bosh tayanch bo‘lgan eoliy lad-parda uyushmasini qamrab oladi.

Kirish qismi, ya’ni mustahallda yangragan yirik hajmdagi cholg‘u muqaddimasi asosiy mavzu kuyini ijro etadi (1-16 takt).

Mazkur asar yuqori pardalarda yangrab, asosiy pardaga bosqichma-bosqich qaytish ohanglariga asoslanganligi bilan ahamiyatlidir. Musiqashunos olim Soibjon Begmatov o‘zbek bastakorlari ijodiga doir o‘quv qo‘llanmasida: “Bu jarayon qo‘shiqqa o‘zgacha drammatizm baxsh etadi”⁴⁹, – deya ta’kidlaydi. Shubhasiz, bu yondashuv kuyning drammatizmini kuchaytiradi, biroq, janr nuqtai nazaridan, asarni tahlil qilish jarayonida qo‘shiqdan ko‘ra ko‘proq ashula shakliga to‘g‘ri kelishiga amin bo‘ldik. Sababi, mumtoz ashulaga xos bo‘lgan, daromad, miyonxat, dunasr hamda furovard kabi ichki tuzilmalar o‘rin olgan.

San’atshunoslik fanlari nomzodi, professor Ravshan Yunusovning Faxriddin Sodiqov ijodiy izlanishlari, uning mualliflik asarlarining tahliliga bag‘ishlanib yozilgan monografiyasida quyidagilarni o‘qiymiz: “Bastakor bu asarini ufar toifasidagi shaklan rivojlangan mumtoz ashulalarga o‘xshatma tarzida tasavvur etdi. Sodiqov uning avvalo xalqchil va, ayni paytda, yangicha tUSDagi musiqiy bayonini topishga muvaffaq bo‘lgani ayniqsa qimmatlidir”⁵⁰.

Daromadda murabba’ning birinchi misrasi asosiy pardada yangraydi. Mumtoz ashulada she’riy matn asosidan kelib chiqib, “yo”, “ey”, “jon”, “voy”, “yor-yor” kabi so‘z birikmalari qo‘shib aytilganligini uchratamiz. Aynan bu misolda ham

⁴⁹ Soibjon Begmatov. Bastakorlar ijodi. O‘quv qo‘llanma. – T.: “NISO POLIGRAF” nashriyoti, 2017. 98-bet.

⁵⁰ Ravshan Yunusov. Faxriddin Sodiqov. – T.: “UNESCO”, 2005. 31-bet.

“o”, “yo”, “ey”, “aylanaman” kabi so‘z va so‘z birikmalardan bastakor mohirlik bilan foydalanadi. Natijada she‘riy va musiqiy vaznlarni o‘zaro bir-biriga bog‘laydi, kuy shaklini ham to‘la qurshab oladi (Ilovaga qarang: 26, 27, 46, 48, 63, 86, 88, 102, 103-taktlar).

Musiqa muallifi tomonidan bu qo‘shimchalar she‘r tarkibiga shunday singdirilganki, ba‘zan asl matn va qo‘shimchalar o‘rtasidagi chegarani topish qiyin bo‘lib qoladi. Mumtoz ashula yo‘llarining o‘ziga xos betakror xususiyatlaridan biri ham aslida ana shu.

30

ay - lang. Ey zul-fi pa-ri - sho - nim

37

Ah-di ha-ma yol-g'o - nim

43

Sin-di, qa-ni pay - mo-nim o ay-la-na-man ey

“Ey, zulfi parishonim, Ahdi hama yolg‘onim, Sindi, qani paymonim, Bir mehry vafo aylang” – deb boshlangan miyonxat kvarta yuqorida sakrash orqali “g²” o‘z qiyofasini ko‘rsatadi. Buning natijasida Ufari Savti Ushshoq maqomiga xos ohanglar eshitiladi.

Faxriddin Sodiqov bastalagan “Ey chehrasi tobonim”ni tinglaganda uning Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llaridan Chorgoh yo‘liga juda yaqin ekanligi tasdiqlanadi.

76

Qil mar-ha-mi naz-zo - ra

82

Kim ayt-di-ki, xush - to - ra yo

88

ay-la-na man ey Yuz jav-ru ja-fo ay - lang. Gar qil-sa Muq-qi-

94

81-taktdan to 84-taktda kelgan bog‘lovchi cholg‘u kuyi eng yuqori pardalarga to‘g‘ri kelib, xuddiki ashulani “Kim aytdiki xushtora, Yuz javru jafu aylang” deb boshlangan avjga tayyorlab bergandek bo‘ladi.

101



In-sof-ga ke-lur__ bir kun o__ ay-la-na-man ey Haq-qi-ga du-o__ ay-lang.

107



112



“Ey chehrasi tobonim” – ashulasining so‘nggi tushirim tuzilmasida birinchi baytning uchinchi misrasi (kuy ohangi qolgan, faqat so‘zlari o‘zgargan, 101-108 taktlar) suporish sifatida talqin qilinadi. Bu suporish kichik bo‘lgan cholg‘u kuyiga, ya’ni xotimaga ulanib yakunlanadi.

Mazkur ashulaning umumiy shakli sxemada ifoda qilinsa, quyidagi tasvir yuzaga keladi:

Cholg‘u muqaddima	1-band	2-band	3-band	4-band	5-band
She’r matni	a	b	c	d	e
Musiqiy shakli	a	b	s	b ₁	c ₁
	/ \	/ \	/ \	/ \	/ \
	a+a ₁ b+c	a+b bog‘. c+d	a+b c+d	a+b bog‘. c+d	a+b c+d
	1-xat	2-xat kengaytirilgan	3-xat	4-xat kengaytirilgan	5-xat
	16 takt	20 takt	16 takt	20 takt	16 takt

Faxriddin Sodiqov musiqasi, Kommuna Ismoilova ijrosida magnit tasmasiga yozib olingan mazkur namuna band shaklida yozilgan. Har bir band ichki tuzilishiga ko‘ra xat shaklida bo‘lib, 1-, 3-, 5-bandlarning yakuniy jumalari ohang jihatidan o‘xshashdir. Bastakor ohangni naqorat sifatida qoldiradi, bandlarni esa variantlash kuzatiladi. Muqimiy g‘azali bilan ijro etiladigan ushbu asar xonandalar⁵¹ tomonidan katta ashula yo‘llariga mos qilib ham ijro etilgan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Muqimiy g‘azal, murabba’, muxammaslariga XX asrda yashab ijod qilgan bastakor-sozandalarning Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarining ohanglari negizida kuy, qo‘shiq, yalla va ashulalar yaratib kelganliklari o‘zbek xalq musiqasi ijodiyotiga chuqur singib ketganini ko‘rsatadi. Bu esa o‘z navbatida o‘zbek bastakorlik ijodiyotidagi zabardast shoir tufayli erishilgan cho‘qqilarni belgilab beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

⁵¹ https://www.youtube.com/watch?v=x4YeU2_hLEE

1. Karimov G'. O'zbek demokratik shoiri Muqimiy va uning davri adabiyoti. Filol. fan. d-ri ... diss. Toshkent 1962 yil; Muqimiy hayoti va ijodi. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. – T., 1970-yil; Muqimiy. Asarlar. Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi G'.Karimov. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974 yil.
2. Muqimiy. Asarlar. Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi G'.Karimov. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974, 20-bet.
3. Begmatov S. Bastakorlar ijodi. O'quv qo'llanma. – T.: "NISO POLIGRAF" nashriyoti 2017 yil, 98-bet.
4. Yunusov Ravshan. Faxriddin Sodiqov. – T.: "UNESCO". 2005-yil, 31-bet.
5. https://www.youtube.com/watch?v=x4Yeu2_hLEE

“TOHIR VA ZUHRA” MUSIQALI DRAMASINING YARATILISH TARIXIDAN

G.A. ABDUSAMATOVA,

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti
“O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi” kafedrasida o'qituvchisi.*

***Annotatsiya.** Maqola “Tohir va Zuhra” musiqali dramasi yaratilish tarixi deb nomlanadi. Mazkur maqolada benazir o'zbek san'atkorlari – xalq shoiri Sobir Abdulla va atoqli bastakor To'xtasin Jalilov tomonidan 1939-yilda yaratilgan “Tohir va Zuhra” musiqali dramasi yaratilish tarixi va taqdiriga oid ma'lumotlar bayon etiladi.*

***Kalit so'zlar:** musiqali drama, maqom, teatr, ashula, bastakor, doston, uvertyura.*

Atoqli dramaturg, din va jamoat arbobi, jadidchilik harakati yetakchilaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiyning ta'rifiga ko'ra, *“Teatr - ibratxona, qutlug' tarbiya va ma'rifat maskanidir!”* Darxaqiqat, dunyo bo'ylab eng ommaviy va ta'sirchan san'at turlaridan biri bo'lgan teatr asrlar davomida odamlarni insoniylik va ezgulikka chorlab, ularning qalbida olijanob fazilatlar, go'zal his-tuyg'ularni kamol toptirishga, jamiyat hayotida tinchlik, do'stlik va hamjihatlik, yuksak axloq va adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda. Xususan, dostonnamo mavzulardagi “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Tohir va Zuhra” singari sahnaviy asarlar uzoq yillarga respublikamiz teatrlari bisotida saqlanayotgani bejiz emas. Ayniqsa, Sobir Abdulla bilan To'xtasin Jalilov hamkorligida yaratilgan “Tohir va Zuhra” musiqali dramasi tez orada o'zbek xalqining eng sevimli spektakliga, teatr sahnasining guldastasiga aylanganini alohida e'tiroflash joiz.

“Tohir va Zuhra” musiqali dramasi yaratilish tarixi O'zbekiston xalq shoiri, taniqli yozuvchi va dramaturg Sobir Abdullaning 1937-yilda Moskvada o'tkazilgan birinchi O'zbekiston adabiyoti va san'ati o'n kunligidagi ishtiroki bilan bog'liq. Adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor, akademik Naim Karimovning “Tohir va Zuhra” ijodkori” nomli maqolasida⁵² benazir shoir va dramaturg Sobir Abdullaning shaxsiy esdaliklari bayon etiladi. Unda yozilishicha: “...delegatsiya rahbari Akmal Ikromov Moskva teatrlaridan birida Shekspirning “Romeo va Julyetta” spektakli namoyishiga meni chorlab, bunday dedi: “Sobirjon,

⁵² Mazkur maqola durdona sahna asari bo'lmish “Tohir va Zuhra”ning yaratilishiga 80 yil to'lgani munosabati bilan yozilgan // Karimov N. “Tohir va Zuhra”ning ijodkori”. // Yangi O'zbekiston. 2021 yil, 30 yanvar, 21-son.